

## YASSAVIY HIKMATLARIDA ISHQ TIMSOLI VA RUHIY KAMOLOT MASALALARI

Suyunova Dilbar Rustam qizi

Ilmiy rahbar. Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

Samatova E'zoza Dilshodjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20058264>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asaridagi hikmatlar asosida ishq timsoli va insonning ruhiy kamolotga erishish jarayoni adabiy-tahliliy jihatdan yoritiladi. Unda Yassaviy talqinidagi ishq oddiy hissiy holat emas, balki insonning ichki poklanishi, nafsni tiyishi hamda ma'naviy yuksalishiga xizmat qiluvchi muhim tasavvufiy tushuncha sifatida izohlanadi. Shuningdek, hikmatlarda aks etgan nafs, qanoat va zikr kabi tushunchalar orqali insonning o'z ustida ishlashi, ichki kurashi hamda ruhiy yetilish bosqichlari ochib beriladi. Tanlangan hikmatlar misolida ishq timsolining badiiy ifodalanish xususiyatlari va uning ruhiy kamolot bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Natijada Yassaviy hikmatlarining nafaqat tasavvufiy tafakkur mahsuli, balki bugungi ma'naviy hayot uchun ham ahamiyatli manba ekani aytib o'tiladi.

**Abstract.** This article provides a literary and analytical study of the symbolism of love and the process of human spiritual development based on selected hikmats from Ahmad Yasavi's "Devoni hikmat". In Yasavi's interpretation, love is not merely an emotional state, but an important Sufi concept that contributes to inner purification, control of the ego (nafs), and spiritual advancement. The study also explores concepts such as nafs, contentment (qanoat), and remembrance (zikr) reflected in the hikmats, through which the processes of self-improvement, inner struggle, and spiritual maturation are revealed. Based on selected examples, the artistic representation of the symbol of love and its close connection with spiritual perfection are analyzed. As a result, it is demonstrated that Yasavi's hikmats are not only a product of Sufi thought, but also an important source for contemporary spiritual and moral life.

**Аннотация.** В данной статье на основе избранных хикматов из произведения Ахмада Яссави «Девони хикмат» проводится литературно-аналитическое исследование символа любви и процесса духовного совершенствования человека. В трактовке Яссави любовь понимается не как простое эмоциональное состояние, а как важное суфийское понятие, способствующее внутреннему очищению, обузданию нафса и духовному возвышению. Также рассматриваются такие понятия, как нафс, довольство (каноат) и зикр, отражённые в хикматах, через которые раскрываются процессы самосовершенствования, внутренней борьбы и духовного становления человека. На примере избранных хикматов анализируются художественные особенности выражения символа любви и его тесная связь с духовным совершенством. В результате показано, что хикматы Яссави являются не только продуктом суфийского мышления, но и важным источником для современной духовно-нравственной жизни.

**Kalit so'zlar:** ilohiy ishq, tasavvuf, tasavvufiy tafakkur, nafs, zikr, ruhiy kamolot, ichki poklanish, badiiy timsol, chin oshiq, komil inson, ma'naviy yuksalish, "Devoni hikmat".

**Keywords:** divine love, sufism, sufi thought, nafs, dhikr, spiritual perfection, inner purification, artistic image, true lover, perfect human, spiritual elevation, Devoni Hikmat.

**Ключевые слова:** божественная любовь, суфизм, суфийское мышление, нафс, зикр, духовное совершенствование, внутреннее очищение, художественный образ, истинный влюблённый, совершенный человек, духовное возвышение, «Девони хикмат».

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin.

Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?

Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - deydilar muhtaram prezidentimiz Sh.M. Miromonovich. O‘zligimizni anglashimiz uchun, avvalo, ulug‘ ajdodlarimizning asarlarini mutolaa qilishimiz, hayotimizga tatbiq etishimiz va ularning hayot yo‘llaridan o‘rnak olmog‘imiz darkor. Turkiy tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi bo‘lgan Ahmad Yassaviy ijodi turkiy xalqlar ma‘naviy tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning ijodi diniy-falsafiy qarashlarni badiiy ifoda etish bilan birga, ma‘rifat, haqiqat va ruhoniyyat g‘oyalarini mujassam etgan muhim ma‘naviy manba sifatida ham e‘tirof etiladi.

Shoirning asosiy asari bo‘lgan “Devoni hikmat” turkiy adabiyotda tasavvufiy g‘oyalarni xalqona, sodda va ta‘sirchan uslubda ifodalash an‘anasining yorqin namunasi hisoblanadi.

Undagi hikmatlar insonni nafsni tiyishga, ma‘naviy poklanishga hamda ilohiy ishq sari intilishga undovchi chuqur mazmunli badiiy hikmatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Asar asrlar davomida turkiy xalqlarning axloqiy va ma‘naviy hayotida muhim yo‘nalish vazifasini bajargan. “Devoni hikmat”ning to‘liq va asl qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmaganligi, keyingi davrlarda esa turli nusxalar va qo‘shimchalar orqali saqlanib qolganligi uning matnini ilmiy jihatdan qiyosiy o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, asar atrofida shakllangan ilmiy qarashlar va munozaralar uning adabiy hamda tarixiy ahamiyatini yanada chuqurlashtiradi.

Mazkur maqolada aynan “Devoni hikmat”dagi hikmatlar asosida ishq timsoli va insonning ruhiy kamolotga erishish jarayoni adabiy-tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Tahlil jarayonida ishqning Yassaviy talqinidagi mohiyati, uning nafs, qanoat va ma‘rifat tushunchalari bilan bog‘liqligi hamda inson ma‘naviy kamolotidagi o‘rni yoritiladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarini tahlil qilishda asosiy e‘tibor ularning badiiy-falsafiy strukturasi, timsollar tizimiga hamda tasavvufiy mazmun qatlamlariga qaratiladi. “Devoni hikmat”da ishq, nafs va ruhiy kamolot masalalari alohida g‘oyaviy yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda insonning ma‘naviy evolyutsiyasini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi tahlilda hikmatlardagi ishq timsoli, nafs bilan kurash motivi hamda ruhiy poklanish jarayoni alohida badiiy birliklar sifatida ko‘rib chiqiladi va ularning mazmuniy-falsafiy qatlamlari ochib beriladi.

Yassaviy hikmatlarida ishq insonni kamolotga yetishtiruvchi omil sifatida markaziy o‘rinni egallaydi va ichki poklanishga undovchi ilohiy holat tarzida namoyon bo‘ladi.

Fikrlarimizni quyidagi hikmatlar adabiy tahlili bilan davom ettiramiz.

*Ishq davosin menga qilma, yolg‘on oshiq,  
Oshiq bo‘lsang, bag‘ring ichra ko‘z qoni yo‘q.  
Muhabbatni shavqi birla jom bermas,  
Zoe kechar umri ani yolg‘oni yo‘q.*

Mazkur to'rtlikda chin va yolg'on oshiq o'rtasidagi farq badiiy-tasavvufiy jihatdan yoritib berilgan. "Yolg'on oshiq" obrazi orqali shoir tashqi jihatdan oshiqdek ko'rinib, ammo ichki dunyosi bo'sh bo'lgan, haqiqatdan yiroq inson tipini tanqid qiladi. "*Ishq davosin menga qilma, yolg'on oshiq*" misralarida bevosita murojaat shakli ko'zga tashlanadi. "Da'vo" so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, ishqni (ilohiy ishqni) chin oshiq hech qachon da'vo qilmaydi, balki uni qalbida pinhona saqlaydi. Yasavviy fikricha, oshiq kishining qalbi sokinlikda bo'lmaydi, ishq har doim ham hissiy zavq beravermaydi, aksincha botiniyida paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Qalbiga ishq tushgan kishi bamisoli olov ichra yonadi, bag'ri qon bo'ladi. "Ko'z qoni" timsoli bu Haqqa fidoiylilik va sadoqat ramzi. "*Muhabbatni shavqi birla jom bermas*" bu misrasi esa muhabbat tashqi mukofot emasligini anglatadi. Shoir aytmoqchiki, chin oshiq muhabbatini manfaatga bog'lamasligi zarur. Bu esa ishqning ilohiyligi va beg'arazligini ochib beradi. Bu muhabbat moddiyat yoki hissiy qoniqish va zavq bilan o'lchanmaydi, u insonni o'zgartiradi, qalbini yumshatadi va poklaydi, nafsni jilovlaydi. Agar muhabbat oshiqni mana shunday ruhiy kamolot sari olib bormasa, u yolg'onidir. Yassaviy ta'kidlaydiki, bunday yolg'on oshiqlik da'vosi umr zavolidir, "*Zoe kechar umri ani yolg'oni yo'q*". Umuman olganda, ishq yo'lida inson sinovdan o'tkaziladi va ichki o'zgarishlar bosqichlaridan o'tibgina ruhiy kamolot ostonasiga qadam qo'yadi.

*Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,  
Xorlik tortsa, shum nafsingni o'ldurmasang,  
Alloh debon ichra nurni to'ldurmasang,  
Valloh-billoh, senda ishqni nishoni yo'q.*

Quyidagi misralarda Yassaviy ishqni yuzaga keltirishni bosqichma-bosqich tizimli tushuntirib beradi. Birinchi misrada ishqni bog'ga qiyoslaydi. Bilamizki, bog' bog'bondan katta mehnat talab qiladi, u uzoq vaqtlar davomidagi parvarish bilan go'zal maskanga aylanadi. Xuddi shunday ishq ham bog' misolidir. Qalbimizdagi ishqni ishq qilish uchun mehnat qilishimiz kerak, bu ruhiy mehnatdir. Endi ikkinchi bosqich "*shum nafs*"ni o'ldurmoq. Yassaviy nafsga shum sifatini beryapti, bu nafsning insonni yo'ldan ozdiruvchi, uni kamolotga erishishdan to'suvchi dushman ekanligini ifodalaydi. Qalbdagi muhabbatni haqiqiy ishq darajasiga ko'tarish bilan mashg'ul bir paytda bu nafs, albatta, xorlik tortadi, ya'ni azoblanadi, qiynaladi. Aynan mana shu vaqtda nafsni jilovlamoq darkor. Bu uchun ichni nur bilan to'ldirish kerak. Nur esa Allohning zikri. Qalblar Allohning yodi bilan yorishadi, nurga burkanadi. Shoir ta'kidlaydiki, oshiq kishi mana shunday garchand og'ir, lekin kamolotga erishish bosqichlaridan, mashaqqatlaridan o'tmas ekan, unda ishqning nishoni ham bo'lmaydi.

*Haq zikrini mag'zi jondin chiqormasang,  
Uch yuz oltmish tomurlaring tebratmasang,  
To'rt yuz qirq to'rt sungarlaring qul qilmasang,  
Yolg'onchidur, haqqa oshiq bo'lg'oni yo'q.*

Ma'rifat, shariat, tariqat, haqiqat. Bu hikmatda Yassaviy ishqni mana shu bosqichlarda tushuntirib beradi. Endi zikrni faqatgina aytish emas, balki uni qay holatda aytilishiga e'tibor qaratiladi. "Mag'zi jon" iborasi inson qalbining eng chuqur va nozik qatlamini anglatadi, ya'ni yuragining tub-tubi. Zikrni faqat tildagina aytish emas, "mag'zi jon"dan chiqarib aytish lozimligi ta'kidlanayapti. "Uch yuz oltmish tomir" iborasining keltirilishi ham bejizga emas.

Bu badiiy timsol insonning jismoniy mavjudligini isbotlab, zikr oshiqning ham tanasi, ham ruhi bilan uyg'unlashib qamrab olinishi lozimligini ifodalaydi.

“To‘rt yuz qirq to‘rt sungarlar” badiiy timsoli esa buni yanada kengaytirib izohlaydi, ya’ni bu timsol orqali insonning butun mavjudligi – tanasi, ruhi, ichki va tashqi borlig‘i ilohiy haqiqatga bo‘ysundirilishi lozimligi anglatilmoqda. “...qul qilmasang” iborasi bu holat ixtiyoriy emas, balki insonning nafsini yengib taslim bo‘lishi kerakligini bildiradi. Hikmatning yakuniy misrasi — “Yolg‘onchidir, haqqa oshiq bo‘lg‘oni yo‘q” — qat’iy hukm xarakteriga ega. Bu yerda shoir zikr orqali ichki uyg‘onishga erishmagan insonni haqiqiy oshiq sifatida tan olmaydi.

Demak, Yassaviy talqinida ishq — bu faqat tuyg‘u emas, balki insonning butun borlig‘ini qamrab olgan ilohiy holatdir. Umuman olganda, ushbu hikmatda zikr insonni ruhiy kamolotning eng yuqori bosqichiga olib chiqadigan vosita sifatida talqin qilinadi. Ahmad Yassaviy ishqni to‘liq his etish uchun inson nafaqat qalban, balki butun vujudi bilan ilohiy haqiqatga yuz tutishi zarurligini badiiy timsollar orqali chuqur ifodalab beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq ruhiy kamolotga erishishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Hikmatlar tahlilidan anglashiladiki, ishq oddiy hissiy kechinma emas, balki insonni ichki poklanishga, nafsni tiyishga va ilohiy haqiqatga yetaklovchi murakkab ruhiy jarayon hisoblanadi. Shuningdek, ishqning yuzaga kelishi mehnat, nafs bilan kurash va zikr orqali amalga oshishi, ya’ni bosqichma-bosqich ruhiy yetilish jarayoni sifatida ifodalanishi aniqlandi. Hikmatlarda berilgan badiiy timsollar — “yolg‘on oshiq”, “ishq bog‘i”, “shum nafs”, “nur”, “tomir” kabi obrazlar orqali insonning ichki olami va ma’naviy evolyutsiyasi chuqur ochib beriladi. Natijada Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari nafaqat tasavvufiy xarakterdagi, balki insonni komillikka yetaklovchi badiiy-ma’naviy asar sifatida namoyon bo‘ladi. Yassaviy hikmatlari bugungi kunda ham insonni o‘z ustida ishlashga, ichki poklanishga va ma’naviy kamolotga yetaklovchi muhim nodir manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmad Yassaviy. “Devoni hikmat” – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992
2. Xoja Ahmad Yassaviy. “Devoni hikmat” (Yangi topilgan namunalar) – T.: Movarounnahr, 2004
3. Nasimxoh Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma – T.: Sano-standart nashriyoti, 2017
4. Natal Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi ( Eng qadimgi adabiy yodgorliklar) – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1965